BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi,
Buxoro xalqaro univesiteti o‘qituvchisi
nodirabegim95@gmail.com

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Muammoli ta’limning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash va tahlil qilish, maqbul yechimlarni izlash, qaror qabul qilish, muloqotga kirishish va hamkorlikda faoliyat olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda muammoli vaziyatlarni yaratish, savol-topshiriqlardan foydalanish, kichik guruhlarda ishlash, amaliy vazifalar va hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan metodik yondashuvlar tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, hayotiy kompetensiya, muammoli ta’lim, muammoli vaziyat, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, muloqot, hamkorlik, amaliy topshiriq, kompetensiyaviy yondashuv.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ ЖИЗНЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье освещаются педагогические возможности использования технологий проблемного обучения в развитии жизненных компетенций учащихся в процессе начального образования. Раскрывается значение проблемного обучения в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, выявления и анализа проблем, поиска оптимальных решений, принятия решений, взаимодействия и совместной деятельности. Также описаны методические подходы, основанные на создании проблемных ситуаций с учётом возрастных и психологических особенностей учащихся начальных классов, использовании вопросов и заданий, работе в малых группах, выполнении практических заданий и моделировании жизненных ситуаций.

Ключевые слова: *начальное образование, жизненная компетентность, проблемное обучение, проблемная ситуация, самостоятельное мышление, критическое мышление, решение проблем, принятие решений, коммуникация, сотрудничество, практическое задание, компетентностный подход.*

THE USE OF PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS’ LIFE COMPETENCIES IN PRIMARY EDUCATION

This article examines the pedagogical potential of using problem-based learning technologies to develop students’ life competencies in the primary education process. It highlights the importance of problem-based learning in developing students’ skills in independent thinking, identifying and analyzing problems, seeking optimal solutions, making decisions, engaging in communication, and working collaboratively. The article also describes methodological approaches based on creating problem situations that take into account the age and psychological characteristics of primary school students, using questions and tasks, working in small groups, completing practical assignments, and modeling real-life situations.

Keywords: *primary education, life competency, problem-based learning, problem situation, independent thinking, critical thinking, problem solving, decision-making, communication, collaboration, practical assignment, competency-based approach.*

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchiga faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, egallangan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish imkoniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida o‘quvchining bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarni birgalikda qo‘llay olishi, mustaqil faoliyat yuritishi hamda turli vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilishi muhim kompetensiyalar sifatida qaralmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchida

mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, topshiriqni rejalashtirish, muammoni aniqlash va uning yechimini izlash kabi dastlabki hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘quv faoliyatini real hayot bilan bog‘lash alohida ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchi o‘zlashtirayotgan bilimining kundalik hayotdagi ahamiyatini anglaydi. Masalan, matematik bilimlar orqali xarid vaqtida hisob-kitob qilish, ona tili darsida turli vaziyatlarda to‘g‘ri muloqot qilish, tabiiy fanlar orqali tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, tarbiya jarayonida mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga oid vaziyatlarni hal etish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, muammoli ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy dars jarayonida o‘quvchi ko‘pincha tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Muammoli ta’limda esa o‘quvchi o‘quv vaziyatining faol ishtirokchisiga aylanadi. Unga tayyor javob berilmaydi, balki muammoni anglash, mavjud bilimlardan foydalanish, turli taxminlarni ilgari surish va ularni tekshirish imkoniyati yaratiladi.

UNICEF materiallarida hayotiy ko‘nikmalar shaxsga kundalik hayotdagi muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish, samarali muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va turli vaziyatlarga moslashish imkonini beradigan kognitiv, shaxsiy va interpersonal qobiliyatlar sifatida tavsiflanadi.

Demak, boshlang‘ich ta’limda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘quvchini real va o‘quv muammolarini mustaqil hal qilishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Muammoli ta’lim aynan shunday pedagogik imkoniyatni yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Muammoli ta’lim g‘oyalarining rivojlanishida J. Deweyning tajribaga asoslangan ta’lim, faol o‘rganish va muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan pedagogik qarashlari muhim ahamiyatga ega. Dewey ta’lim jarayonini bolaning real tajribasi va amaliy faoliyati bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan.

L.S.Vygotskiyning ta’lim va rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligiga oid qarashlari ham muammoli ta’limni tashkil etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchiga uning mavjud imkoniyatlaridan biroz yuqoriroq bo‘lgan vazifalarni taqdim etish pedagogik yordam va hamkorlik orqali yangi bilim hamda ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi.

D.Jonassen muammoli ta’limni murakkab, mazmunli va real hayotga yaqin vaziyatlar asosida tashkil etish zarurligiga e’tibor qaratgan. Bunday yondashuvda o‘quvchi muammoni shunchaki yechibgina qolmay, uning sabablarini tahlil qiladi, turli yechimlarni taqqoslaydi va qarorining asoslarini izohlaydi.

Zamonaviy xalqaro ta’lim yondashuvlarida ham o‘quvchilarning mustaqilligi, agentligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, mas’uliyatli harakat qilishi hamda turli vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olishi muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatilmoqda.

Shunday qilib, ilmiy-pedagogik manbalar tahlili muammoli ta’limning nafaqat predmet bilimlarini, balki o‘quvchining hayotiy faoliyatida zarur bo‘ladigan universal ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tahlil, muammoli topshiriqlar, taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanish mumkin.

Hayotiy kompetensiyalar o‘quvchining kundalik va ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan turli vaziyatlarni anglash, ularga mos munosabat bildirish va maqbul faoliyat usulini tanlash imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar majmuasidir.

Mazkur kompetensiyalar bir-biridan alohida shakllanmaydi. Masalan, muammoli vazifani guruhda hal qilish jarayonida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida muammoni tahlil qiladi, muloqot qiladi, boshqa fikrlarni tinglaydi, qaror qabul qiladi va o‘z yechimi uchun mas’uliyatni his qiladi.


Muammoli ta’limning asosiy xususiyati o‘quvchini tayyor bilimni qabul qilishdan faol izlanishga yo‘naltirishdir. Bunda o‘qituvchi muammoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qilib bermaydi, balki o‘quvchining mustaqil izlanishiga yo‘naltiruvchi savollar va pedagogik vaziyatlarni tashkil etadi.

Mazkur jarayon o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirib, uning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, tushunarli va kundalik hayot bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Masalan, matematika darsida quyidagi vaziyatni berish mumkin:

Muammoli vaziyat: “Do‘konga 50 000 so‘m pul bilan keldingiz. Siz 18 000 so‘mlik daftar va 12 000 so‘mlik ruchka sotib oldingiz. Qancha pulingiz qoldi? Qolgan pulingizga yana qanday mahsulot sotib olishingiz mumkin?”



1-rasm. Boshlang‘ich sinflarda muammoli ta’limni tashkil etish sxemasi

Ushbu topshiriq o‘quvchining nafaqat matematik hisoblash ko‘nikmasini, balki kundalik hayotda moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ona tili darsida muammoli vaziyat: “Do‘stingiz sizga o‘z fikrini aytdi, lekin siz uning fikriga qo‘shilmaysiz. U bilan qanday muloqot qilgan bo‘lardingiz?”


Bunday vaziyat orqali o‘quvchilarda o‘z fikrini madaniyatli ifodalash, boshqalarning fikrini hurmat qilish va muloqot qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Tabiiy fanlar darsida:

Muammoli vaziyat: “Maktab hovlisidagi daraxtlarning ayrim barglari sarg‘ayib qoldi. Buning qanday sabablari bo‘lishi mumkin? Muammoni aniqlash uchun nimalarni kuzatish kerak?”

Bu topshiriq kuzatish, taxmin qilish, sabab va oqibatni aniqlash, dalillar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim asosida hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishni quyidagi model asosida tashkil etish mumkin:



2-rasm. Muammoli topshiriqlarni tashkil etish tamoyillari

Topshiriq yakunida o‘quvchi “Men qanday yechim topdim?”, “Nima uchun aynan shu yo‘lni tanladim?”, “Boshqa qanday yechim bo‘lishi mumkin?” kabi savollar orqali o‘z faoliyatini baholaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’limda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli pedagogik imkoniyat yaratishi aniqlandi. Muammoli ta’limning asosiy xususiyati o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki muammoni anglash, mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, turli yechimlarni izlash va asoslangan qaror qabul qilish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida mazkur yondashuvni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish ularning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning o‘z fikrini mustaqil bayon qilish, savol qo‘yish, sabab va oqibatlarni aniqlash, mavjud ma’lumotlarni taqqoslash hamda muammoning bir nechta yechimini taklif qilish faolligi ortadi. Bunda o‘quv topshiriqlarining kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lanishi alohida ahamiyatga ega. Masalan, vaqtni rejalashtirish, xarid qilishda mablag‘ni to‘g‘ri taqsimlash, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish, tabiatni asrash, jamoada ishlash va turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini amaliy jihatdan rivojlantirish imkonini beradi.

Muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi tayyor yechimni beruvchi emas, balki o‘quvchilarning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi pedagog sifatida faoliyat olib boradi. O‘quvchilarga muammoli savollar berish, taxminlar ilgari surishga imkon yaratish, javoblarni dalillar asosida izohlashni talab qilish va xulosalarni mustaqil shakllantirishga yo‘naltirish samarali natijalarga olib keladi.

Tadqiqot davomida muammoli ta’limning quyidagi bosqichlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi: muammoli vaziyatni yaratish; muammoni anglash va ifodalash; mavjud bilim va tajribalarni faollashtirish; muqobil yechimlarni izlash; yechimlarni muhokama qilish va baholash; maqbul qarorni tanlash; natijani amaliy vaziyat bilan bog‘lash hamda refleksiya qilish. Mazkur ketma-ketlik o‘quvchilarda nafaqat fan doirasidagi bilimlarni, balki kundalik hayotda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari muammoli ta’lim texnologiyalarining hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ta’siri bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Birinchidan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasi rivojlandi. Ikkinchidan, real va o‘quv muammolarini hal qilish orqali muammoni aniqlash va yechim topish kompetensiyasi mustahkamlandi. Uchinchidan, guruhli va juftlikdagi faoliyat orqali kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalari rivojlandi. To‘rtinchidan, turli variantlarni baholash va qaror tanlash orqali qaror qabul qilish kompetensiyasi shakllandi. Beshinchidan, o‘z faoliyati natijasini tahlil qilish orqali refleksiv kompetensiya rivojlandi.

Shuningdek, muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi topshiriqlarning murakkablik darajasi va o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilishiga bog‘liqligi aniqlandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muammoli vaziyatlar haddan tashqari murakkab yoki abstrakt emas, balki ularning kundalik tajribasiga yaqin, tushunarli va qiziqarli mazmunda bo‘lishi lozim. Muammo oddiy kuzatishdan tahlilga, tahlildan mustaqil yechim izlashga, undan esa ijodiy qaror qabul qilishga bosqichma-bosqich olib borishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shundan iboratki, muammoli ta’lim texnologiyalarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish hayotiy kompetensiyalarni yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ona tili, matematika, tabiiy fanlar, tarbiya va texnologiya fanlari mazmunidagi muammoli topshiriqlarni o‘zaro bog‘lash orqali o‘quvchilar bilimlarni alohida-alohida emas, balki real hayotiy vaziyatlarni hal qilish vositasi sifatida qo‘llashni o‘rganadilar.

Shu bilan birga, muammoli ta’limning samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchidan muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri tanlash, topshiriqlarni differensiallashtirish, o‘quvchilarning individual faolligini hisobga olish, guruhli hamkorlikni tashkil etish va natijalarni kompetensiyaviy mezonlar asosida baholash talab etiladi. Demak, muammoli ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich ta’limda nafaqat o‘quv bilimlarini o‘zlashtirish, balki o‘quvchini real hayotga tayyorlash, unda mustaqillik, mas’uliyat, muloqot, hamkorlik, muammoni hal qilish va oqilona qaror qabul qilish kabi hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi.


Muammoli ta’limning muhim jihati shundaki, o‘quvchi bilimni amaliy vaziyatda qo‘llashga majbur bo‘ladi. Shu sababli bilimning hayotiy mazmuni kuchayadi.

Bu ko‘nikmalar o‘quvchining faqat ta’lim jarayonidagi emas, balki kundalik hayotidagi faoliyatiga ham ko‘chadi. Shu jihatdan muammoli ta’lim hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning amaliy yo‘naltirilgan texnologiyasi sifatida qaralishi mumkin.

Muammoli ta’lim texnologiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratadi. Muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchi muammoni anglaydi, mavjud bilimlarini safarbar qiladi, taxminlar ilgari suradi, turli yechimlarni izlaydi, ularni taqqoslaydi va asoslangan qaror qabul qiladi. Ushbu jarayonda mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, muloqot, hamkorlik, mas’uliyat va qaror qabul qilish kabi hayotiy kompetensiyalar kompleks ravishda rivojlanadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, muammoli vaziyat yaratuvchi, savollar beruvchi va o‘quvchining mustaqil izlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi. Muammoli ta’limning yana bir afzalligi fanlararo integratsiyani kuchaytirish imkoniyatidir. Masalan,

“Maktabda chiqindilarni kamaytirish” mavzusidagi muammoli loyiha matematika, tabiiy fanlar, ona tili va tarbiya fanlari mazmunini birlashtirishi mumkin. O‘quvchilar chiqindilar miqdorini hisoblaydi, ularning turlarini aniqlaydi, muammoning sabablarini muhokama qiladi, takliflar ishlab chiqadi va o‘z yechimini taqdim etadi.



3-rasm. Muammoli topshiriqlar

Muhokama. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hayotiy kompetensiyalar o‘quvchining faqatgina nazariy bilimlarni egallashi bilan cheklanmay, o‘z bilim va ko‘nikmalarini kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni aniqlashi va ularni hal etishi, muloqotga kirishishi hamda o‘z faoliyatini baholashi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammoli ta’limning asosiy xususiyati o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki muammoni mustaqil anglash, tahlil qilish, faraz ilgari surish va yechim izlash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdan iborat. Bunda o‘qituvchi bilimni bevosita berishdan ko‘ra, o‘quvchining mustaqil fikrlashiga undovchi muammoli vaziyatlarni yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun real hayotga yaqin vaziyatlardan foydalanish ta’lim mazmunining amaliy ahamiyatini oshiradi.

Muhokama jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy, kognitiv, amaliy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Masalan, o‘quvchilarga “Do‘konda xarid qilish jarayonida sizda ma’lum miqdorda pul bor. Kerakli mahsulotlarni qanday tanlaysiz va qancha pul ortib qolishini qanday aniqlaysiz?” kabi vaziyatli topshiriq berilganda, ular nafaqat matematik hisob-kitoblarni amalga oshiradi, balki rejalashtirish, tanlash, qaror qabul qilish va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini ham namoyon etadi. Bunday topshiriqlar o‘quv bilimlarini real hayot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim mazmunini real hayot bilan bog‘lashni, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishni va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarda o‘rganilgan bilimlarni yangi va notanish vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi. OECDning zamonaviy ta’limga oid konsepsiyalarida ham o‘quvchining mustaqil agentligi, bilim va ko‘nikmalarni real vaziyatlarda qo‘llashi, mas’uliyatli harakat qilishi hamda kelajakdagi murakkab vaziyatlarga tayyorlanishi muhim yo‘nalish sifatida qayd etiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda muammoli ta’lim texnologiyalarini tizimli ravishda qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat fanlarga oid bilimlarini, balki hayotiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun quyidagi metodik tavsiyalarni taklif etish mumkin:

1. Har bir mavzuga kamida bitta hayotiy muammoli vaziyatni bog‘lash.
2. Tayyor javob berishdan oldin o‘quvchilarga mustaqil fikrlash uchun vaqt ajratish.

3. Bir muammoning bir nechta yechimini izlashga undash.
4. Muammoli vazifalarni individual va guruhli shakllarda uyg‘unlashtirish.
5. O‘quvchilarning noto‘g‘ri javoblarini darhol rad etmasdan, xatoni aniqlashga yo‘naltiruvchi savollar berish.
6. Muammoli topshiriqlarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etish.
7. Dars yakunida refleksiv savollardan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi. – T.: 2022.
2. Qodirova M. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2023.
3. Rasulova G. O‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlar. – Samarqand, 2021.
4. Turg‘unova Z. Boshlang‘ich ta’limda matn bilan ishlash samaradorligi. – Buxoro, 2020.
5. Hasanov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2022.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 bet.
7. Bahodirovna, B. N. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish. Scientific Impulse, 1(5), 660-664.
8. Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi. The methodology of working on teachers' speech in primary class mother language and reading literacy lessons. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. Vol. 2, No 5 (2023), 654-657.